



OLMOSH SO'Z TURKIMINING QADIMGI VA HOZIRGI RUS TILI GRAMMATIKASIDAGI TASNIFI

Azamatova Hilola Behzod qizi

Nizomiy nomidagi TDPU, tillar fakulteti
o'zga tilli guruhlarda rus tili yo'nalishi

2- bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10640276>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 04-February 2024 yil
Ma'qullandi: 06- February 2024 yil
Nashr qilindi: 09- February 2024 yil

KEY WORDS

*Qadimgi rus tili, morfologiya,
olmosh, sintetik tur, fleksiya,
prefiks,*

ABSTRACT

*Ushbu maqolada qadimgi rus tili grammatikasida yuz
bergan o'zgarishlar, xususan, morfologiya bo'limining
yangilanishi va olmosh so'z turkumining qadimgi rus tili
va hozirgi rus tilida taqqoslanishi yoritiladi.*

Olmosh boshqa so'zlar, shuningdek so'z birikmasi va gap o'rnida ishlatilib, ularga ishora qiluvchi yoki so'roq bildiruvchi so'zlardir. Olmoshlar ot, sifat, son ba'zan fe'l va yordamchi so'zlar o'rnida almashtirib qo'llaniladi.

Olmoshlarning atash ma'nosi bo'lmaydi. Shuning uchun ular "ichi bo'sh so'zlar" deyiladi. Olmosh larning morfologik usul (so'z yasovchi qo'shimchalar qo'shib so'z yasash) orqali boshqa turkumlardan yasalmaydi.

Olmoshlar boshqa so'zlarning yasalishiga asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Asosiy qism

Eng qadimgi rus adabiy tili Kiyev Rusida shakllangan bo'lib, u 14-asrgacha sharqiy slavyanlar uchun umumiyl til hisoblangan. 14—15-asrlarda qadimgi rus tili 3 tilga — velikorus (rus), ukrain va belorus tillariga bo'linib ketadi.

Qadimgi rus tili sintetik turdag'i va flektiv tuzilishga ega til hisoblanadi. Bu shuni anglatadiki, qadimgi rus tilidagi grammatik ma'nolar asosan so'zlar tarkibida va fleksiyalar yordamida ifodalangan. Prefiks va qo'shimchalar grammatik ma'nolarni ifodalash uchun kam qo'llanilgan. Qadimgi rus tili grammatikasida morfologiya bo'limi so'z turkumlarini o'z ichiga olgan. Bunda barcha so'z turkumlari ikki guruhg'a bo'lingan: ismlar (именные) va fe'llar (глагольные). Ismlar tarkibiga: ot so'z turkumi, sifat so'z turkumi va olmosh so'z turkumi kirgan.

Fe'llar esa: fe'l so'z turkumi, ravish so'z turkumini o'z ichiga olgan. Son so'z turkumi esa mavjud bo'limgan. Son so'z turkumi 17 asrda so'z turkumi sifatida ifodalangan bo'lib, unga qadar ot va sifat so'z turkumlari tarkibida bo'lgan.

Qadimgi rus tilida olmosh so'z turkumi murakkab qatlarni ifodalagan. Shuningdek, ular atash ma'nosiga ega bo'limgan. Ular shunchaki shaxs va narsalarni ko'rsatib kelgan. Qadimgi

rus tilida ular morfologik xususiyatlari va sintaktik vazifalariga qarab **ikki guruhga** bo'lingan:

1. Birinchi guruh 1- va 2-shaxs kishilik olmoshlaridan (*язь, ты*), shuningdek, *себя o'zlik* olmoshlaridan iborat bo'lgan.
Kishilik olmoshlari ot so'z turkumiga o'xshab gaplarda sub'yekt va predmet vazifasini bajargan. Ular kelishiklar, birlik va ko'plikka qarab o'zgargan.
2. Ikkinci guruh esa shaxs ishtrok etmagan olmoshlar ya'ni ko'rsatish olmoshlari, nisbiy olmoshlar so'roq olmoshlar inkor olmoshlar va boshqalar kirgan .

Shaxssiz olmoshlar bir nechta **toifalarga** bo'lingan:

- указательные; (ko'rsatish olmoshi)*
- вопросительные; (so'roq olmoshi)*
- притяжательные; (tegishlilik olmoshi)*
- относительные; (nisbiy olmoshlar)*
- определительные; (aniqlov olmoshlar)*
- отрицательные; (inkor olmoshi)*
- неопределенные. (noaniq olmoshlar)*

Hozirgi rus tilida olmoshlar ma`no jihatidan umumiyligi 9 guruhga bo`linadi

1. *вопросительные*
2. *относительные*
3. *отрицательные*
4. *неопределённые*
5. *возвратное*
6. *личные*
7. *притяжательные*
8. *указательные*
9. *определительные*

Qadimgi va hozirgi rus tilida olmosh so`z turkumini solishtradigan bo`lsak, qadimgi rus tilida olmoshlar 2 katta guruhlarga bo`lingan. 2-chi guruh esa 7 kichik guruhdan tashkil topgan.

Hozirgi rus tilida esa olmoshlar ma`no jihatidan 9 guruhga bo`linadi.

Shunday ekan qadimgi va hozirgi rus tilida olmoshlar deyarli katta faqr qilmagan.

Yillar o'tib insonlar ongi takomillashgani sari til tarqqiyoti yuz bergan. Shu sabab qadimgi mukammalikdan oddiylik va soddalikka o'tgan holda olmosh soz turkumidagi ichki kichik guruhlardan voz kechib ular mukammal bol'magan guruhlarga bo`lingan.

Qadimgi rus tilida hozirgi rus tilidan farqli o'laroq 3-shaxs kishilik olmoshi mavjud bo'lmanagan.

Uning vazifasini ko'rsatish olmoshlari (*и (м. п.), ә (ж. п.), ё (cp. p.)*) bajargan.

Keyinchalik bizgacha yetib kelgan qadimgi cherkov slavyan va qadimgi rus tillarining eng qadimgi yozma yodgorliklarida Bosh kelishik shakllarini almashtirish *и, ә, ё, ёнатијасида,* ko'rsatish olmoshi yuzaga keladi - *онъ, она, оно.* Ushbu olmoshlarning o'zgarishiga sabab, ular и ko'plik shakil bilan bir xil shaklda bo'lganligi uchun chalkashliklar yuzaga kelganligidir . Shunday qilib 3- shaxs kishilik olmoshlari yuzaga kelgan.

Shuningdek, 1 – shaxs kishilik olmoshi Я qadimgi rus tilida азъ shaklida bo'lgan. Keyinchalik XII asrga kelib u ЯЗЬ shakliga o'tgan. Hozirda Я shaklidan foydalanamiz.

Biroq G.A. Xaburgayev ushbu kishilik olmoshi haqida shunday deydi: “ язъ shakli jonli nutqqa xos emas, u eski slavyan shakli азъ va qadimgi ruscha я shaklining ifloslanishini ko'radi. G. A. Xaburgaevning fikricha, “я” shakli азъ kelib chiqmagan; I shakllanishi Sharqiy slavyan va g'arbiy slavyan dialektlarida mustahkam o'rnashgan juda qadimiy proto-slavyan dialekt xususiyati hisoblanadi”.

Shaxssiz olmoshlar tarixi

1.Ko`rsatish olmoshlari predmetning so`zlovchidan uch daraja uzoqligini aks ettirgan.

съ, cu ce olmoshlari so`zlovchiga yaqin predmetni bildirgan;

ть, ma, mo - so`zlovchidan uzoqda, lekin suhbatdoshga yaqin bo'lgan narsaga;

онь, она, оно so`zlovchidan ham, suhbatdoshdan ham uzoqda joylashgan predmetga ishora qilgan.

и, я, е olmoshlari avval ko`rsatilgan shaxs yoki predmetni bildirgan va chala guruhga ham kirmagan, yani neytral bo'lgan.

Ko`rsatish olmoshlari ba'zan birikib murakkab olmoshni hosil qilgan. Bunda ikkinchi qism yoki bir xil olmosh (*тъ — тътъ, съ — съсъ*) yoki boshqa ko`rsatuvchi, ko'pincha и(*тъ — тъи, cu — cui*) olmoshdan tashkil topgan. Bunday so`zning ikkala qismi ham bir xil grammatik shaklga ega bo'lgan. Ular asosan ikki marta ko'paytirish, ma'noni kuchaytirish yoki ta'kidlash uchun xizmat qilgan.

Til taraqqiyoti jarayonida *съ, cu, ce* va *онь, она, оно* olmoshlari yo'qolgan. Lekin til taraqqiyoti shunday bo'ldiki, *mom, ma, mo* olisdag'i predmetni ko`rsata boshlagan, so`zlovchiga yaqin bo'lgan narsaga ko`rsatgich vazifasini esa *этот, эта, это* olmoshlari bajara boshlagan

2.Egalik olmoshlari turkumi hali to'liq shakllanmagan, turkum doirasida bir nechta guruhlarni ajratish mumkin:

личнопритяжательные (мой, твой),

вопросительно-притяжательные (чей),

отрицательно-притяжательные (ничей),

неопределенно-притяжательные (чей-то).

Rus tili tarixida egalik olmoshlari hech qanday jiddiy o'zgarishlarga duch kelmagan.

3.Noaniq olmoshlar kech yasalgan. Dastlab, noaniqlik so'roq olmoshlarida bo'lgani kabi bir xil shakllarda ifodalangan

4. Aniqlov olmoshlarga *каждый, всякий, сам, самый, весь* kabilar kiradi.

5. Inkor olmoshlari ancha kech yasaladi

6. So'roq olmoshlari *кои, коя, кое* va *чей, чья, чье* *къ-* va *чъ-* o'zaklarini ko`rsatish olmoshi *и, я, е* bilan qo'shish orqali paydo bo'lgan *кто* va *что* olmoshlari *къ-* va *чъ-* o'zaklarining qo'shilishi natijasida paydo bo'lgan.

7. Nisbiy olmoshlarga *иже, къто, чъто* va boshqalar kiradi

Qadimgi rus tilida, hozirgi rus tilida bo'lgani kabi, nisbiy va so'roq olmoshlarining ma'nolari bir xil so'zlar bilan ifodalangan. *Къто, чъто, которыи, колико, куда, къде* kabi olmoshlar ham nisbiy, ham so'roq olmoshi vazifasini bajara olgan. Shuningdek ular bosh gapga ergash gapni biriktirish uchun ham qo'llanilgan.

Xulosa qilib aytgan qadimgi rus tili hozirgi rustiliga qaraganda ancha murakkabroq bo'lgan. Bu murakkablik esa chalkashliklarni yuzaga keltirgan. Olib borilgan tatqiqotlar natijasi shuni ko`rsatadiki, yillar o'tib insonlar ongi takomillashgani sari til tarqqiyoti yuz bergan. Shu sabab qadimgi mukammalikdan tushunarlik va soddalikka o'tgan holda olmosh soz turkumidagi

ichki kichik guruqlar yo'qolgan. Bu esa olmosh so'z turkumini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Borkovskiy V.I., Kuznetsov P.S. Rus tilining tarixiy grammatikasi. - M., 2006 yil.
- 2.Ivanov V.V. Rus tilining tarixiy grammatikasi. - M., 1990 yil.
- 3.Keldiyev T.T. Abiturent uchun qo'llanma. Rus tili "Qaldirg'och nashriyoti" – T.,2021
- 4.Zaliznyak A. A. Qadimgi rus tilidagi qarama-qarshi nisbiy va so'roq olmoshlari // Balto-slavyan tadqiqotlari 1980. - M., 1981.

